



ERKIN A'ZAM STORIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Gayratova Gulzoda Sanat qizi¹

¹ Bukhara State University

2nd year student of the Faculty of Philology

Gayratovaguli@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4939939>

ARTICLE INFO

Received: 01st June 2021

Accepted: 05th June 2021

Online: 10th June 2021

KEY WORDS

Literary

Education, FSMU

Technology, Erkin Azam,

Optimal Technologies,

Blue Door Story,

Linguopoetic Analysis.

ABSTRACT

Literary education is one of the main directions of human education, in which the use of new pedagogical technologies is important. The role of fiction in the formation and development of the human psyche, even his personality, is invaluable. In particular, in this article, we will try to explore the role of interactive methods and pedagogical technologies to make Erkin Azam's work and his stories more effective in the educational process.

ERKIN A'ZAM HIKOYALARNI TA'LIM JARAYONIDA O'TISH

G'ayratova Gulzoda San'at qizi¹

¹ Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2kurs talabasi

Gayratovaguli@gmail.com

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-iyun 2021

Ma'qullandi: 05-iyun 2021

Chop etildi: 10-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Adabiyot ta'limi, "FSMU" texnologiyasi, Erkin A'zam, optimal texnologiyalar, "Ko'k eshik" hikoyasi, lingvopoetik tahlil.

ANNOTATSIYA

Adabiy ta'lim bu inson tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotning inson ruhiyati hatto uning shaxsiyatining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni beqiyosdir. Xususan ushbu maqola davomida biz Erkin A'zam ijodi va uning hikoyalarini ta'lim jarayonida o'tishda samaradorlikka erishish uchun interaktiv metodlar hamda pedagogik texnologiyalarning o'rnini o'rganishga harakat qilamiz.

Adabiyot ta'limidan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni badiiyatdan zavqlanishga, nutqini va mustaqil fikrlashini rivojlantirish bilan birga o'zligini anglashga o'rgatish hamda o'zgarlar fikrini

anglashga qaratiladi. Bu esa adabiyot ta'limida boy badiiy manbalarimizni yanada chuqurroq o'rgatish bilangina cheklanib qolmasdan undan hayotda foydalanish malakalarini ham kamol tortirishni talab



etadi. Shulardan kelib chiqqan holda adabiy ta'limning mazmuni: o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish; o'z-o'zini, moddiy borliqni badiiy ifoda vositalari yordamida anglashga hamda fikri va his-tuyg'ularini chiroyli bayon eta olishga o'rgatishdir.

Ayniqsa bugungi globalashuv zamonida adabiyot fanini o'qitishning eng optimal texnologiyalarini yaratish, har bir darsga texnologik yondashish, turli interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi va natijaviy faoliyatni yuzaga keltiradi. Adabiy ta'limga xos bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalar sirasiga hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, muammoli texnologiya hamda o'yin texnologiyasini kiritishimiz mumkin. Hamkorlik texnologiyasi o'qituvchi - o'quvchi, o'quvchi - o'quvchi, o'quvchi - jamoa hamkorligiga asoslanganligi bilan adabiy ta'limga xos texnologiya desak mubolag'a bo'lmaydi. Adabiy ta'lim bu o'quvchi shaxsini ulg'aytirish, unda nafosat, go'zallik tuyg'ularini kamol toptirish, badiiy estetik ruh bag'ishlash, she'riyatga, badiiy asarga oshno qilib tarbiyalash hamda ularda insoniy xislatlarni shakllantirish va hokazolarni maqsad qilib olar ekan, bugun aynan darslarda o'qituvchining texnologik yondashgan holda darslarni tashkil qilishi ushbu maqsadlarga erishish uchun va ularni oldindan belgilashda zaruriy kalit vazifasini o'taydi desak to'g'ri bo'ladi.

Erkin A'zam ijodi o'z adabiy avlodidan alohida ajralib turadi. Uning ilk ijod namunalaridan to hozirgi kunga qadar turli janrlarda yaratilgan asarlarida adibning so'zga zargarona yondashishi, adabiyotga, ijodga talabchanligiga guvoh bo'lamiz. Adib asarlarida lirizm, kinoya,

yumor ustunlik qiladi. Uning ijodidagi eng muhim xususiyat shundaki, adib asarlarida insoniy tuyg'ular, munosabatlar samimiy chizgilarda tasvirlanadi. Inson tabiatining turfa xilligi, fe'l-atvori, xarakteri o'ziga xos uslubda yaratilgan obrazlar vositasida ifoda etiladi. Erkin A'zam ijodi adabiyotga kirib kelgan paytdanoq adabiyotshunos mutaxassislarining e'tibori, e'tirofiga sazovor bo'lgan. Agar 70-80- va undan keyingi yillar matbuotini kuzatsak, adibning ijodi ko'plab mulohaza, bahs va munozaralarga sabab bo'lganligiga amin bo'lamiz. Istiqloq yillaridan so'ng esa yozuvchi ijodi keng miqyosda, turli mezonlar asosida tadqiq etildi; Adib o'zbek adabiyoti maydoniga 60-yillar oxiri, 70-yillar boshida ilk hikoyalari bilan kirib keldi. Shundan beri ijodiy, rasmiy-jamoatchilik, muharrirlik ishlarini sidqidildan bajarib kelmoqda. Muallifning "Chiroqlari o'chmagan kecha", "Otoyining tug'ilgan yili", "Javob", "Olam yam-yashil", "Bayramdan boshqa kunlar", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Kechikayotgan odam", "Guli-guli", "Ertak bilan xayrlashuv", "Jannat o'zi qaydadir", "Shovqin" kabi hikoya, qissa, badiiy-publitsistika to'plamlari, romani keng adabiy jamoag'chilikka, shuningdek, oddiy kitobxonlarga ham ma'lum va mashhur.

Ta'lim jarayonida Erkin A'zam ijodini tadqiq etar ekanmiz, dars jarayonining qizg'in o'tishi va talabalar faolligini oshirish maqsadida interfaol usullardan foydalanish hamda dars samaradorligini oshirish borasidagi tadqiqotlarni olib borish zarur deb o'ylayman. Jumladan:

"FSMU" texnologiyasi.

Bu texnologiyadan foydalanishda o'qituvchi har bir o'quvchiga "FSMU"



texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bunda:

F—fikringizni bayon eting;

S—fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;

M- ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U—fikringizni umumlashtiring.

O'qituvchi o'quvchilar bilan bahs mavzusini belgilab oladi. Yakka tartibdagi ish tugagach, o'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi. Kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlari taklif etiladi. O'qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi. Mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.[1]

"Ko'k eshik" mavzusi bo'yicha fikrlaringizni bayon qiling.

F- "Ko'k eshik" hikoyasi Erkin A'zamning eng mashhur va o'lmas asarlaridan biridir.

S - "Ko'k eshik" hikoyasida yaxshilik, mehr -muhabbat kabi fazilatlar o'z ifodasini topganligi bois ham u umrboqiydir.

M - " Ko'k eshik" hikoyasida kampir tabiatidagi soddalik, ezgulik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, kamtarlik va uning uyidagi Bo'rivoy obarazi o'zaro yonma-yon qo'yilda. Bir so'z bilan aytganda qahramon

xarakteridagi bag'rikenglik fazilati kitobxonning diqqatini tortmay qo'ymaydi.

U - qaysiki asarda oqibat, ezgulikni ulug'lar ekan, bu asarning umri boqiydir.

"Kichik guruhlarda ishlash" usuli-ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materiallarini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan. Ushbu usul qo'llanganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish imkoniga, boshlovchi rolda bo'lish, birbiridan o'rganish va turli fikrlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

Namuna: Erkin A'zam hayoti va hikoyalarini organish.

1- qadam: Oquvchilar 1-4 gacha bo'gan raqamlar asosida kichik guruhlariga bolinadilar.

2- qadam: Guruhlar mavzu doirasida o'z guruhlariga nom tanlab, izoh beradilar.

3- qadam: Har bir guruhga savollar beriladi.

1- guruh uchun: Erkin A'zamning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot bering.

2- guruh uchun: " Anoyining jaydari olmasi" hikoyasining mazmun- mohiyati haqida fikrlaringizni umumlashtiring.

3- guruh uchun: " Anoyining jaydari olmasi" hikoyasidagi qahramonlarga munosabat bildiring.

4- guruh uchun: " Anoyining jaydari olmasi" hikoyasida tarbiyaviy ahamiyati.

4- qadam: O'qituvchi tomonidan aniq vaqt, intizom, hamjihatlik, o'zaro hurmat, qisqa va aniqlik bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.



5- qadam: Kichik guruhlar o'z ishlarini taqdimot qiladi.

6- qadam: Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

Ta'lim jarayonida, aynisa adabiyot va ona tili darslarida samarali natijalarga erishishda ushbu interfaol usullardan unumli foydalanish zarur deb o'ylayman. Xususan, Erkin A'zam ijodi misolida ta'lim jarayonida kichik hikoyalarning tadbiiq etish ona tili va adabiyoti fanlari doirasida talabalar

o'rtasida faollikni oshirishga xizmat qila oladi. Ijodkorning turli janr va usullarda yaratgan asarlaridagi qo'llagan obraz, tasviriy ifoda ham badiiy-manaviy g'oyani tushunish va tahlil qilish jarayoni ancha murakkab bo'lib pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi esa ta'lim sifatini oshirishga zamin yaratadi. Jumladan munozarali bahslarning talabalar o'rtasida shakllanishi Erkin A'zam ijodining lingvopoetik tahlil qilinishiga olib keladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. T.: Kamalak, 2016. – 462 b.
2. Husanboeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. – 368 b.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. –354 bet.
4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.
5. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. T.: Kamalak, 2016. – 462 b.